

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 657.1378(575.1)

ASRANOV ABDURASUL XOSHIMJONOVICH

**OLIY TA‘LIM TIZIMIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA
NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: A.K.Ibragimov,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

TOSHKENT – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I BOB. OLIY O‘QUV YURTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA NAZORATINING NAZARIY ASOSLARI Ошибка! Закладка не

определена.

§. 1.1. O‘zbekiston Oliy ta’lim muassasalarida hisob tizimining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari **Ошибка! Закладка не определена.**

§. 1.2. Oliy o‘quv yurtlarida budjet hisobining nazariy asoslari..... **Ошибка! Закладка не определена.**

§. 1.3. Oliy ta’lim faoliyatida moliyaviy nazoratining nazariy masalalari. **Ошибка! Закладка не определена.**

II BOB OLIY O‘QUV YURTLARIDA BUDJET HISOBI VA NAZORATINI TASHKILY ASOSLARI Ошибка! Закладка не определена.

§.2.1. Oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari, hisob siyosati va tashkiliy asoslari..... **Ошибка! Закладка не определена.**

§. 2.2. Oliy ta’lim muassasalarining budjet va budjetdan tashqari hisobi hamda nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari..... **Ошибка! Закладка не определена.**

§. 2.3. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish xususiyatlari **Ошибка! Закладка не определена.**

III BOB OLIY TA’LIMLARIDA MOLIYAVIY NAZORAT VA HISOBOTNI AUDIT TEKSHIRUVINI TAKOMILLASHTIRISH Ошибка!

Закладка не определена.

§. 3.1. Oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi uslubiyotini takomillashtirish **Ошибка! Закладка не определена.**

§. 3.2. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy nazoratni xalqaro standartlar asosida amalga oshirishni takomillashtirish **Ошибка! Закладка не определена.**

§. 3.3. Oliy o‘quv yurtlarida ichki auditni tashkil etish va uning o‘ziga xos masalalari **Ошибка! Закладка не определена.**

XULOSALAR..... **Ошибка! Закладка не определена.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI **Ошибка! Закладка не определена.**

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor berilmoqda. Chunki oliy ta’lim tizimi mamlakatni innovatsion rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Jahonning juda ko‘p yetakchi davlatlarida ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish hamda uni egallash imkoniyatlarini oshirish, mazkur jabhaga jalb etilgan investitsiyani har tomonlama mukammal ta’minlashni, shu bilan birga mavjud omillardan imkoniyat darajasida foydalanishni ham talab qiladi. “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo davlatlarda oliy ta’lim tizimi xarajatlari YAIMning o‘rtacha 1,5 foizini tashkil etadi. Bunda xususiy sektorning ulushi YAIMning 1 foizini tashkil etsa, davlatning ulushi YAIMning 0,5 foizini tashkil etadi. Jumladan, 2015 yilda oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishda davlatning ulushi Avstraliya, Norvegiya, Finlyandiya mamlakatlarida yuqori bo‘lib, ushbu sohaga xarajatlar YAIMning 1,5 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etgan. Oliy ta’limni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushi katta bo‘lgan mamlakatlarga AQSH, Buyuk Britaniya, Chili mamlakatlarini kiritish mumkin. Ushbu mamlakatlarda oliy ta’lim xarajatlarida xususiy sektorning ulushi YAIMning o‘rtacha 1,2-1,7 foizini tashkil etgan”¹. Respublikamizda oliy o‘quv yurtlari davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga faoliyat olib boradi, ushbu mablag‘lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish sohani rivojlantirishdagi eng muhim masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarini jadallashuvi o‘z o‘zidan buxgalteriya hisobini tashkil etishda ham innovatsion yondashuvlarni joriy

¹ Education at a Glance 2018: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris. <http://dx.doi.org/10.1787/eag-2018-en>

etilishiga zamin yaratmoqda. Xususan, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va nazorat tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar yaratilmoqda. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi ta'limni xalqaro standartlarga to'la moslashtirishga, tubdan yangilashga, ta'lim boshqaruvi va buxgalteriya hisobi yuritishni sifatli va tizimli idora qilish ko'lamini yanada kengayishiga asos bo'lmoqda. Chunki hisob obyektlari xilma xilligi ortib, hisob axborotlaridan foydalanuvchining yangi turlari paydo bo'lmoqda. Shu jumladan 2022 yil 1 yanvardan "Davlat auditi" dasturiy kompleksi ishga tushirildi. Unga ko'ra: "budjet tashkilotlari, maqsadli hamda belgilangan tartibda tashkil etilgan davlatning boshqa jamg'armalarda o'tkazilgan barcha moliyaviy nazorati tadbirlari, shu jumladan ichki audit xizmatlarining audit tadbirlari"² "Davlat auditi" dasturida ro'yxatga olinib, ushbu sohada amaliy ishlar qilinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda ayniqsa oliy ta'lim tizimida faoliyat jarayonlari bilan bog'liq ko'plab ziddiyatli va muammoli vaziyatlar paydo bo'lishi (budjet hisobini yuritishdagi kamchiliklar, firibgarlik, norasmiy pul mablag'larini o'zlashtirilishi), ushbu jarayonlarni hisobini tashkil qilish va uning nazoratini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Uning auditi, faoliyat tahlili masalalariga e'tibor qaratilishi, hisobni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilinishiga qaratilgan va olib borilayotganligi ko'plab izlanishlar ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini ta'minlaydi. Ayniqsa, iqtisodiyotning bozor munosabatlari takomillashgan bir davrida va ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalarini buxgalteriya hisobi va nazorati rivojining ustuvor yo'nalishlari, tamoyillari, qonun-qoidalari va xususiyatlari to'g'risida ushbu soha mutaxassislari tomonidan turli xil qarashlarning mavjudligi o'rganilayotgan yo'nalishda dolzarb chora — tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

² Davlat audit dasturi

O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimi faoliyatida foyda va xarajatlar tizimini tashkil etishda “budjet hisobi tartibini Davlat sektorida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IPSAS) uyg‘unlashtirish”, belgilangan umumxalq qoidalari talablaridan kelib chiqib, budjet ijrosi va xo‘jalik hisobi faoliyatiga oid axborotlarning ochiqligini ta’minlashda, iqtisodiy tizimida mablag‘larning taqsimlanishi bo‘yicha hisobdorlikni kuchaytirishda, budjet ijrosi nazoratining yetakchi axborot tizimlaridan foylanilmoqda. Shu bilan birga, budjet tizimi taqsimotlar ijrosi hisobini tizimli tarzda “kassa usuli”dan “hisoblash usuli”ga o‘tkazish orqali budjet hisobotlari axborotlarining tahliliy imkoniyatlarini oshirishni taqozo qilmoqda. O‘z navbatida, ushbu jihatlar O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlarida budjet va o‘z mablag‘lari miqdori shuningdek, moliyaviy hisoboti hamda ularning nazoratiga oid mavjud metodologik asoslarni chuqur tadqiq etish va takomillashtirishni talab etmoqda.

Ushbu masalada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2017 yil 21 avgustda PQ-3231-son “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2018 yil 22 avgustda PQ-3917-son “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekistondagi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim tizimi faoliyatini, ayniqsa oliy ta’lim tizimini budjet hisobi va hisoboti va nazoratining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirish bo‘yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga Anvar Shah, Andreea Cirstea, Antonio Trigo, Fernando Belfo, M.A. Jorge de Jesus, JSB. Eirado, N.P.Kondrakov, O.Krasnoperova, T.S.Maslova, O.V.Mitina, V. Yu.Pokusayev, T.A.Poleщuk, M.A.Ryabovalarni kiritish mumkin³.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan K.B.Axmedjanov, R.D.Dusmuratov, A.K.Ibragimov, M.B.Kalonov, S.U.Mehmonov, M.Ostanakulov, A.A.Ostanaqulov, N.Q.Rizayev, S.N.Tashnazarov, A.J.Tuychiyev, I.N.Qo‘ziyev, K.B.O‘razov, B.K.Hamdami, B.A.Xasanov, K.R.Xotamov, Z.U.Xamidovalarning asarlarida budjet hisobi, hisoboti va nazoratining nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganilgan⁴.

³ Anvar Shah. Public Sector Governance and Accountability Series: Budgeting and budgetary institutions. 2007. Andreea Cirstea. The Need for Public Sector Consolidated Financial Statements. . Volume 15, 2014, Pages 1289-1296.;Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. Procedia Technology. Volume 9, 2013, Pages 536-546.; MA Jorge de Jesus, JSB Eirado. Relevance of accounting information to public sector accountability: A study of Brazilian federal public universities. ТЭХНЕ — Review of Applied Management Studies. 2012.; Кондраков Н.П. и др. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. -М.: Проспект, 2006.; Красноперова О. Бюджетный учет – М.: "ГроссМедиа Ферла", 2008.; Полещук Т.А., Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. –М.: "ИНФРА-М", 2017. 227 с.; Рябова М.А. и друг. Бюджетный учет и отчетность : учебное пособие / — Ульяновск : УлГТУ. 2010.; Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A Survey on the Impact of Accounting Information System on Tasks Efficiency: Evidence from Malaysian Public Sector Agencies. International Review of Management and Marketing. ISSN: 2146-4405. 2017, 7(1), 183-190.; The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank.

⁴ Ахмеджанов К.Б. Иқтисодийни модернизация қилиш шароитида ички аудит методологиясини такомиллаштириш. иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: 2016. – 76-б.; Остоноқулов А.А. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш. Монография. – Т.: «VNESHINVESTPROM», Ибрагимов А.К., Сугирбаев Б.Б. (2009) “Бюджет назорати ва аудити” Ўқув қўлланма / Т.: «инфоСОМ.УЗ». 192-б.; Калонов М.Б. Корхоналарда даромадлар ва харажатлар ҳисоби ҳамда таҳлили методологиясини такомиллаштириш: иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: 2019.-52-б.; Меҳмонов С.У., Кулибоев А.Ш. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари ҳисоби. Ўқув қўлланма, «Иқтисод-молия» 2018. 186-б.; Остоноқулов М. Бюджет ташкилотларида янги бухгалтерия ҳисоби. Қўлланма. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2011. 480-б. 237-бет; Пардаев А.Х., Пардаев Б.Х. Бошқарув ҳисоби. – Тошкент: 2008. – 252-б.; Пардаев М.Қ. Иқтисодийни эркинлаштириш шароитида иқтисодий таҳлилнинг назарий ва методологик муаммолари: иқт. фан. док. дис. автореф. – Т.: Ўз.Р БМА. 2002. – 43-б.; Ризаев Н.Қ. Интеллектуал мулк объектлари ҳисоби ва таҳлилини ташкил этиш методологияси. иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: 2017. – 76-б.; Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш // Монография.-Самарқанд.: 2018. – 271-б.; Гуйчиев А.Ж. ва бошқ. Бюджет ташкилотларида бюджет ҳисоби. Дарслик. «Иқтисод-молия» 2019. 429-б.; Қўзиев И.Н. Иқтисодийни модернизациялаш шароитида аудиторлик ҳисоботини тузиш ва умумлаштириш методологиясини такомиллаштириш. иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: 2017. – 70-б.; Ўразов К.Б. Иқтисодийни эркинлаштириш шароитида бухгалтерия ҳисобининг концептуал масалалари. – Тошкент: Фан, 2005. – 236-б.; Ҳамдамов Б.К. ва бошқ. Бюджет назорати. Ўқув қўлланма. – Т.: “Iqtisod moliya”, 2016. 324 б.; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш масалалари: иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: Ўз.Р.БМА. 2004. – 42-б.; Хотамов К.Р. Билвосита солиқлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини такомиллаштириш. иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: БМА, 2016. 62 б.; Ҳамидова З.У. Бюджет ташкилотларида

Shuningdek, A.S.Bakaybayeva, K.Sh.Ibragimov, S.U.Mehmonov, A.A.Ostanakulov, Sh.V.G‘aniyevning dissertatsiya va monografiyalarida budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti, nazorati ilmiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratildi⁵.

Ta’kidlash zarurki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan budget tashkilotlarining hisobi va hisoboti, nazoratining metodologik muammolarini o‘rganishga keng e’tibor qaratilgan, lekin zamon va vaqt o‘tishi amaldagi me’yoriy hujjatlarning budget tizimini isloh qilish va takomillashtirish sharoitiga muvofiq o‘zgarib borishi ushbu sohada ilmiy izlanishlar chuqurroq olib borish lozimligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu ilmiy ish tadqiqoti Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari (Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti) ilmiy tadqiqot ishlarining 2018 – 2023 yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasida belgilangan yo‘nalishlariga to‘la mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi Oliy ta’lim tizimida buxgalteriya hisobi, uning yuritilishi va nazoratini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslovchi takliflar va amaliyot qo‘llash bo‘yicha ahamiyatga molik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi:

ички аудит ва молиявий назорат хизматлари фаолиятини самарали ташкил қилиш масалалари. Монография. – Т.: “VNESHINVESTPROM” 2021. 183-б.

⁵ Бакайбаева А.С. Ўзбекистон Республикасида бюджет ҳисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш йўллари. икт. фан. фал. док. дис. автореферати. –Т.: 2020. – 52-б.; Ибрагимов К.Ш. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботни такомиллаштириш (Олий таълим муассасалари мисолида). икт. фан. фал. док. дис. автореферати. –Т.: 2018. – 54-б.; Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби: назария ва амалиёт. Монография. – Т.: “Iqtisod moliya”, 2016.; Отанокулов А. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш икт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: 2022. – 52-б.; Фаниев Ш.В. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш (таълим тизими мисолида). икт. фан. ном. дис. автореферати. –Т.: Ўз Р БМА., 2008. 28-б.

- Oliy ta'lim tizimida hisob yuritishning zaruriyati, o'zini-o'zi moliyalashtirishda hisob yuritishning o'ziga xos xususiyatlari nazariy hamda uslubiy jihatdan asoslandi;

- Oliy ta'lim muassasalarida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisobotining nazariy asoslari tadqiq etildi;

- Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari, boshqaruv va hisobi siyosati va tashkiliy asoslari tahlil etildi;

- Oliy ta'lim muassasalarida budjet hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotlarni tuzishda, hisob yuritishning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi;

- Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va hisob siyosatini yuritish uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan, amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

- Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat va hisobot auditini tashkil etishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning obyekti Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining moliyaviy-xo'jalik faoliyati tadqiqotning obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Oliy ta'lim muassasalarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hisobini yuritish va hisobotini tuzish, uning nazoratining nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, statistika, tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblarda 174/1 — “Akademik stipendiya oluvchilar hisob-kitoblar”, 174/2 — “Ijtimoiy stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/3 — “Maxsus stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/4 — “Nomdor stipendiya oluvchilar bilan

hisob-kitoblar” subschotlarini qo‘llash asosida stipendiya oluvchilar hisobi yuritilishini takomillashtirish taklifi asoslangan;

talabalar bilan hisob-kitoblar hisobini olishda 178 — “Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” ishchi schyot ochish hamda 178/1 — “Modul kredit bo‘yicha hisob-kitoblar”, 178/2 — “Talabalar turar joyi to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblar” subschotlarini qo‘llash asosida talabalar bilan to‘lov-kontraktdan tashqari boshqa mablag‘lar hisobini to‘liq va aniq yuritish taklifi asoslangan;

budjetdan tashqari mablag‘larni hisobga olishda 263 — “innovatsion jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar” schyotini alohida qo‘llash orqali innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobini takomillashtirish taklifi asoslangan;

talabalar bilan kredit-modul hisobini budjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi schyotida yuritish orqali kredit-modul tizimida talabaning fanlardan qarzdorligi bo‘yicha hisob — siyosatini takomillashtirish taklifi asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat oliy ta‘lim tizimidagi va mustaqil OO‘Yularining mablag‘larini smetalarda nazarda tutilgan maqsadlarda sarflanishini ta‘minlash tartibi asoslangan;

davlat oliy ta‘lim tizimidagi va mustaqil OO‘Yulari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar hisobiga oid schyotlar korrespondensiyasi ishlab chiqilgan;

oliy ta‘lim muassasalarida daromad va xarajatlarni xalqaro standartlarga mos ravishda yuritish va xarajatlarning asoslanganligini nazorat qilish usullaridan foydalanish tartib ishlab chiqilgan;

oliy ta‘lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘larining sarflanishini nazorat qilish tartibi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishda foydalanilgan amaliy uslubiy yondashuv va usullarning barcha uchun birdek foydalanish maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma‘lumotlarining rasmiyligi, Oliy ta‘lim muassasalariga oid ma‘lumotlarning moliyaviy hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va

tavsiyalarning normativ-huquqiy hujjatlar hamda budget hisobini yuritish va hisobotini tuzish hamda nazoratini takomillashtirish uchun joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning amaliy ahamiyati davlat va moliyaviy mustaqil oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va hisoboti, ichki audit va nazorati metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalarda o'z ifodasini topadi. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalardan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalarida sohaga oid fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. davlat oliy ta'lim tizimidagi va mustaqil oliy ta'lim muassasalariga o'z-o'zini moliyalashtirish sharoitida mablag'lar hisobi va hisoboti, nazoratini metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Oliy ta'lim muassasalarida stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblarda 174/1 — “Akademik stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/2 — “Ijtimoiy stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/3 — “Maxsus stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar”, 174/4 — “Nomdor stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar” subschotlarini qo'llash asosida stipendiya oluvchilar hisobini to'liq va aniq yuritishni takomillashtirish taklifi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari (ToshDAU, Andijon QXAI, Termiz AIRI, Qoraqalpog'iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagi 4/17-4/3-1437-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritishda hisob siyosatini ishchi schyotlar rejasi tarkibi, hisob registrilarini yuritish va uning axborot imkoniyatlarini oshirilishi natijasida hisob siyosatini tez va tejimli tuzish imkoniyati soddalashgan va oliy ta'lim

muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy hisobotlarni tuzish imkoniyati yaxshilangan;

talabalar bilan hisob-kitoblar hisobini olishda 178 — “Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” ishchi schyot ochish hamda 178/1 — “Kredit-modul bo‘yicha hisob-kitoblar”, 178/2 — “Talabalar turar joyi to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblar” subschotlarini qo‘llash asosida talabalar bilan to‘lov-kontraktdan tashqari boshqa mablag‘lar hisobini to‘liq va aniq yuritish taklifi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta‘lim muassasalari (ToshDAU, Andijon QXAI, Termiz ARI, Qoraqalpog‘iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagi 4/17-4/3-1437-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida 178 — “Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” ishchi schyot kiritish hamda 178/1- “Kredit-modul bo‘yicha hisob-kitoblar” va 178/2- “Talabalar turar joyi to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblar” schyotlarini amaliy qo‘llash talabalar to‘lov-shartnomadan tashqari boshqa mablag‘lari to‘g‘risidagi hisob-kitoblari UzASBO dasturida foydalanish imkoniyati yaratildi. Kredit modul tizimi bo‘yicha bo‘lgan qarzdorlik hamda talabalardan fanlarni qayta o‘zlashtirish bo‘yicha tushgan mablag‘lar hisobi nazoratga olindi. Talabalar turar joyi to‘lovlar hisobini yuritilishi, ya‘ni talabalar uchun hisoblanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar hisobi va nazoratini takomillashtirish imkonini bergan;

budjetdan tashqari mablag‘larni hisobga olishda 263 — “innovatsion jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar” schyotini alohida qo‘llash orqali innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobini takomillashtirish taklifi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta‘lim muassasalari (ToshDAU, Andijon QXAI, Termiz ARI, Qoraqalpog‘iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagi 4/17-4/3-1437-son

ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatdan olinadigan daromadlarni hisobga olishni takomillashtirishda 263-“Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha boshqa daromadlar” nomli ishchi schyotini qo'llash ilmiy va innovatsion faoliyat bilan bog'liq barcha mablag'lar har bir kafedralarning daromadlar va xarajatlar hisobini alohida sintetik schyotda yuritilishi, ma'lumotlarning aniqligini, shaffofligini ta'minlashi asoslangan;

oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va nazoratini tashkil etishda tarmoq xususiyatini hisobga olgan holda, kredit-modul tizimi asosida hisob siyosatini takomillashtirish taklifi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari (ToshDAU, Andijon QXAI, Termiz AIRI, Qoraqalpog'iston QXAI), Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon mashinasozlik instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagi 4/17-4/3-1437-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida buxgalteriya hisob siyosatida kredit-modul tizimidagi jarayonlarni aks ettirish va nazorat qilishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.